



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 2a-uy Tel.: (+998) 71 241-01-86; (+998) 55 503-74-00
web-site: www.uzedu.uz, e-mail: uzedu@exat.uz

2024-yil "8"- avgust

06-12-1798-son

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahri hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 2-fevraldagi "Davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 87-son qarorida "2023/2024-o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida pedagog kasbiga birinchi marta ishga qabul qilingan stajor-o'qituvchilar, 2024/2025-o'quv yilidan boshlab esa bosqichma-bosqich umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining tegishli toifaga ega bo'lmagan pedagog kadrlari kasbiy sertifikatlash sinovlariga jalb etilishi" hamda mazkur qaror bilan tasdiqlangan "Davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamenti"da "talabgor — kasbiy sertifikat olishga da'vogar bo'lgan davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotidagi stajor-o'qituvchi yoki mutaxassis lavozimidagi o'qituvchi"-ekanligi belgilab qo'yilgan.

Hozirgi kunda vazirlik va boshqa tashkilotlarga kelayotgan murojaatlardan ma'lum bo'lmoqdaki, ayrim umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari direktorlari tomonidan yuqoridagi topshiriqlar ijrosi noto'g'ri talqin qilinib, pedagogik ish stajiga ega bo'lgan, turli sabablarga ko'ra ish joyini o'zgartirayotgan nomzodlarni ham stajor-o'qituvchi lavozimiga ishga qabul qilish hamda oliy, birinchi va ikkinchi malaka toifalariga ega bo'lgan pedagoglarni kasbiy sertifikat sinovlariga jalb qilish holatlariga yo'l qo'yilmoqda.

Shu munosabat bilan, mazkur ko'rsatib o'tilgan tavsiya asosida barcha umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari rahbarlariga tegishli tushuntirish ishlarini olib



borishingiz hamda muammoli holatlar yuzaga kelganda bartaraf etish choralarini koʻrishingiz soʻraladi.

*Maʼlumot uchun: Mazkur masala boʻyicha Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligining 2023-yil 9-avgustdagi 02-01/3-1188-son xati hududiy boshqarmalarga ijro va nazorat uchun yuborilgan. Xatda 2023/2024-oʻquv yilidan boshlab pedagogik kasblarga **birinchi marta ishga qabul qilinadigan** oliy maʼlumotli talabgorlar stajor-oʻqituvchi sifatida faoliyat yuritishi va ular ishga qabul qilingan vaqtdan boshlab bir yil muddat davomida kasbiy sertifikatga ega boʻlishi talabi belgilanganligi qayd etilgan.*

Vazir oʻrinbosari



S.Radjabov